


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**ETIKA VA ESTETIKA**

**FANINING O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	200 000 – San‘at va gumanitar fanlar
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	60220500 –Falsafa

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti dekani:  Askarov M.M.

Sharq falsafasi va germeneytika kafedrasi mudiri:  Sulaymonov J.B.

ARM boshlig'i  Yuldasheva M.M.

<b>Fan/modul kodi</b> E TEST1206		<b>O'quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestr</b> 2	<b>ECTS - Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Etika va Estetika</b>	72	108	180	
2.	<p style="text-align: center;"><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad:</b> talabalarda axloqiy va estetik dunyoqarashni shakllantirish va ilmiy tushunchalardan foydalangan holda fikrlash, yangi faraz va nazariyalarni ilgari surish, munozaralarda qatnashish hamda axloqiy va estetik qadriyatlar prizmasidan fan va dunyoqarashning murakkab muammolarini hal etish qobiliyatini rivojlantirish. Shuningdek, axloqiy va estetik madaniyatning shaxs va jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas xususiyati sifatida mohiyati; axloqiy va estetik madaniyat, uning shaxs va jamiyatning ma'naviy yuksalishidagi ahamiyati bo'yicha nazariy bilimlarni o'rgatish va amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- etika va estetika faniga oid bilimlar majmuasini shakllantirish, axloqiy va estetik o'lchovlar ma'naviy va moddiy faoliyatning barcha shakllariga xos ekanligini anglagan holda ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;</li> <li>- yetakchi xorijiy davlatlarning ilm-fan yutuqlari, ilg'or pedagogik texnologiyalari va ilmiy adabiyotlari asosida talabalarga axloqiy va estetik ong, axloqiy va estetik faoliyat, axloqiy va estetik madaniyat, etika va estetikaning asosiy kategoriyalari, san'at va uning turlarini, axloqiy va estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyatini ochib berish;</li> <li>- etika va estetikaning fundamental tamoyillarini, axloqiy va estetik anglash jarayonining asosiy metodologiyalarini, etika va estetika elementlarini o'z ichiga olgan dunyoning ilmiy tasvirining zamonaviy modelini o'zlashtirish;</li> <li>- bo'lajak mutaxassislarning O'zbekiston davlatini rivojlantirishda, dunyoga sinergetik tizim sifatida axloqiy va estetik munosabatini shakllantirishda, nafosat olamini yaratish va o'zlashtirish jarayonida analitik fikrlash qobiliyatini shakllantirish ko'nikmalarini shakllantirish.</li> </ul>				

### **Xorij tajribasiga muvofiqligi:**

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi **Leiden universiteti** (ARWU 111) tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.

<https://studiegids.universiteitleiden.nl/en/studies/9708/philosophy-global-and-comparative-perspectives#tab-1>

## **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

#### **1-mavzu. "Etika"ning fan sifatida predmeti, mazmuni, maqsadi va vazifalari.**

Fanning predmeti, mazmuni va strukturasi. "Etika" fanining maqsad va vazifalari. Fanning "Sharq falsafasi madaniyati tarixi", "G'arb falsafasi tarixi", "Madaniyat falsafasi va akseologiya", "Ijtimoiy falsafa", "Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar" hamda boshqa mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi. Uning ijtimoiy-gumanitar fanlari tizimida tutgan o'rni.

Etika - axloq haqidagi nazariya. Axloqning umuminsoniy va milliy, tarixiy va konkret, dialektik va ijtimoiy xarakteri. Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yuksaltirishda, shaxsni kamol toptirishda axloqning roli. Axloq - ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo'lgan munosabatlarining, ya'ni xatti-harakat tamoyillari va tartib-qoidalarining majmui ekanligi.

Etikada qat'iy amrlilik, me'yoriylik va baholash xususiyatlarining falsafiy mohiyati va shaxs axloqiy kamolotidagi ahamiyati.

"Axloq - ma'naviyatning o'zagi" sifatida. Etikada qat'iy amrlilik, me'yoriylik va baholash xususiyatlarining falsafiy mohiyati va shaxs axloqiy kamolotidagi ahamiyati. Shaxs va jamiyat ma'naviy hayotining axloqiy mezonlari. Axloqning asosiy ijtimoiy funksiyalari: insonparvarlashtiruv, boshqaruv, kommunikativ, tarbiyaviy. Axloqiy boshqaruvning tashqi va ichki omillari.

Sharqda shakllangan "komil inson" tushunchasining talqini va ahamiyati. Yangi O'zbekistonning taraqqiyoti, jamiyatni yuksaltirish hamda shaxsni kamol toptirishda "Etika" fanining vazifalari.

#### **2-mavzu. Axloqiy fikr rivojining asosiy bosqichlari**

Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rimda axloqiy ta'limotlar rivoji.

kelishi: diniyehadisiy yo'nalish axloqshunosligi (Al-Buxoriy, At-Termiziy); mashshoyiun faylasuflarning axloqiy ta'limotlari (Forobiy, Ar-Roziy, Ibn Sino, Ibn Ru'hd); tasavvufning mohiyatan axloq falsafasi ekani (G'azzoliy, Rumiy). Sharda axloqshunosligida komil inson konsepsiyasining shakllanishi.

Yevropa Uyg'onish va Yangi davri axloqshunosligi. Hozirgi zamon g'arb axloq falsafasi va undagi asosiy yo'nalishlar.

### **3-mavzu. Axloq falsafasining shakllanishi.**

#### **Axloqning tarkibiy tuzilishi**

Axloqning kelib chiqishiga oid diniy, naturalistik, kulturologik ta'limotlar. Axloq falsafasining shakllanishi va asoslanishi.

Etika - axloq haqidagi nazariya. Axloqning umuminsoniy va milliy, tarixiy va konkret, dialektik va ijtimoiy xarakteri. Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yuksaltirishda, shaxsni kamol toptirishda axloqning roli. Axloq - ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo'lgan munosabatlarining, ya'ni xatti-harakat tamoyillari va tartib-qoidalarining majmui ekanlig

Axloqning tarkibiy tuzilishi tushunchasi. Axloqiy ong va uning elementlari. Axloqiy amaliyot, faoliyat, munosabatlar, xatti-harakat. Xulq va uning motivlari. Axloqiy munosabatlar va ularning boshqaruvi yoki himoya vazifalari.

### **4-mavzu. Axloqning asosiy qoidalari, tamoyillari va ijtimoiy funksiyalari**

Axloqinsonning olamni ma'naviy-amaliy o'zlashtirish va unga qadriyaviy-imperativ munosabatda bo'lishning o'ziga xos usuli ekanligi. Axloq - shaxs xulq-atvorining tamoyillari, norma va ideallarining tizimi sifatida. Dastlabki axloqiy qoidalar: halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, kamtarlik, xushmuomalalik, bag'rikenglik, gumanizm, altruizm, muhabbat va boshqalar.

Axloqiylik tamoyillari: vatanparvarlik, umumxalq ishiga sadoqat, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligi, so'z va ish birligi, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik, birodarlik va boshqalar. Iroda erkinligi va shaxsning axloqiy mas'uliyati. Erkinlik va zaruriyat - shaxs xulq-atvorining axloqiy mezon. Tanlash erkinligi. Shaxs xulq-atvorida maqsad va vosita, motiv va baho muammosi. Axloqiy baho mezon.

Axloqiy qadriyatlar. Hayot oliy qadriyat sifatida. Ezgulik, haqiqat, go'zallik, ishonch, muhabbat – umuminsoniy axloqiy qadriyatlar ekanligi.

Axloqning asosiy ijtimoiy funksiyalari: insonparvarlashtiruv, boshqaruv, kommunikativ, tarbiyaviy. Axloqiy boshqaruvning tashqi va ichki omillari.

### **5-6-mavzu. Axloqning asosiy kategoriyalari**

Axloq kategoriyalarning o'ziga xos xususiyati. Ularda axloqiy ongning, axloqiy munosabatlarning, odob xususiyatlarining eng muhim tomonlari va elementlari umumlashgan holda aks etishi. Etika kategoriyalari: yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, or-nomus (sha'n), adolat, hayotning ma'nosi, baxt, ideal, muhabbat.

Etika kategoriyalari axloqiy mazmunning umumiyliги kengligi bilangina cheklanmay, baholash va normativlik xususiyatlari bilan ham belgilanishi. Axloq kategoriyalari jamiyatning axloqiy taraqqiyoti jarayonida yangicha xususiyatlar kasb etib, o'zgarib va rivojlanib borishi.

### **7-mavzu. Oilaning axloqiy xususiyatlari**

Oilaning axloqiy voqelik sifatidagi xususiyatlari. Nikohda diniy, huquqiy, axloqiy asoslarning o'zaro mutanosibliги va o'ziga xos jihatlari. Oilada erkak va ayolning o'rni. Undagi axloqiy munosabat muammolari. Gender masalasi va uning axloq bilan bog'liq tomonlari. Oilaviy munosabatlarga noan'anaviy yondashuvlar: bir jinsli nikohlar, nikohsiz oilalar va ularning oqibatlari.

Oilaviy mulk muammosi va uning axloqiy jihatlari. Oila ilk tarbiya maskani sifatida. Ota-onalik va farzandlik burchlari. Oila buzilishi sabablari va oqibatlari. Yosh avlod tarbiyasida oilaviy muhitning o'rni.

### **8-mavzu. Axloqiy madaniyat. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotiga tahdidlarning etikaviy xarakteri**

“Axloqiy madaniyat” tushunchasining mohiyati va boshqa ma'naviy madaniyat turlari bilan o'zaro aloqadorligi. Axloqiy madaniyatning elementlari va asosiy mezonlari. Axloqiy madaniyatning xususiyatlari, tamoyillari va funksiyalari.

Axloqiy madaniyatning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro aloqadorligi. Muomala odobi axloqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi. Etiket - axloqiy madaniyatning tarkibi va inson tashqi madaniyatining ifodasi sifatida.

Shaxs va jamiyat axloq madaniyatining o'zaro aloqadorligi. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotiga tahdidlarning etikaviy xarakteri. Korruptsiya shaxs va jamiyat tanazzulining muhim sababi sifatida. Uning zamonaviy shaxs ma'naviy tarbiyasini nazariy asoslashga qaratilgan fan sifatidagi mavqei.

Insonning tabiiy va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarining axloqiy jihatlari. Biosfera, noosfera va etosfera (axloqiy muhit) tushunchalari. Ekologik muammolar va ularning axloqiy madaniyatga bog'liq tomonlari. Ilmiy-texnikaviy ravnaq va jamiyat barqaror rivojlanishining axloqiy jihatlari.

Amaliy etika muammolari: ratsionallik va xudbinlik, sahovatlilik, evtanaziya, o'lim jazosi va boshq.

### **9-mavzu. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning axloqiy jihatlari**

Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish. Raqamlashtirish fani va yangi texnologiyalarning yaqinlashuvi yirik iqtisodiy, ijtimoiy va antropologik o'zgarishlarning asosi sifatida. Internet, raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, superkompyuterlar, sensorli tarmoqlar va boshqa innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning o'zgarishi sun'iy intellektni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi.

Kiberetika - bu kompyuterlar bilan bog'liq axloqning falsafiy sohasi bo'lib, u foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini, kompyuterlar nima qilish uchun dasturlashtirilganligini, bu odamlarga va umuman jamiyatga qanday ta'sir qilishini qamrab oladi. Kiberetika sohasi, Internetda odamlarning shaxsiy ma'lumotlarini uzatishning to'g'riligini, foydalanuvchilarni bila turib yolg'on ma'lumotlardan himoya qilishni, axborot resurslarining mavjudligini, intellektual raqamli huquqlarni, raqamli ma'lumotlarga ega bo'lish va ularni himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyalarning tarqalishi va ular keltirib chiqaradigan muayyan axloqiy muammolar. Raqamli axloq va javobgarlik madaniyatini yaratishi. Adolat, axloq va xavfsizlik tamoyillari.

Raqamli axloq - bu texnologiyalar odamlarning siyosiy, ijtimoiy va axloqiy mavjudligini qanday shakllantirishini o'rganadigan tadqiqot sohasi.

Sun'iy intellekt etikasi - bu keng qo'llaniladigan qadriyatlar, tamoyillar va amaliyotlar to'plami. Sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishda tan olingan axloqiy xulq-atvor standartlari. Robot etikasi, robotlarning axloqiy xatti-harakatlarini ta'minlashi. Roboetika muammolar va axloqiy

dilemmalarni ko'rib chiqadi. Raqamli algoritmlarning shaxsiy va jamiyat farovonligini yaxshilash salohiyati muhim axloqiy xavflarni keltirib chiqarishi.

### **10-mavzu. Estetika: obykti, predmeti va ijtimoiy funksiyalari.**

Fanning predmeti, mazmuni va strukturasi. "Estetika" fanining maqsad va vazifalari. Fanning "Etika", "Sharq falsafasi madaniyati tarixi", "G'arb falsafasi tarixi", "Madaniyat falsafasi va akseologiya", "Ijtimoiy falsafa", "Falsafiy antropologiya" hamda boshqa mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi. Uning ijtimoiy-gumanitar fanlari tizimida tutgan o'rni.

Estetika fanining ahamiyati va vazifalari. Demokratik jamiyatning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lib yetishishida estetikaning roli. Estetikaning falsafiy mohiyati. "Estetika" atamasining muomalaga kiritilishi. Go'zallik – nafosatning bosh, yetakchi xususiyati ekanligi. San'at – estetikaning tadqiqot obykti sifatida o'ziga xos olam ekanligi.

### **11-mavzu. Estetik fikr rivojining asosiy bosqichlari**

Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rimda go'zallikka doir ta'limotlar rivoji.

O'rta asr Sharq va G'arb mutafakkirlari estetik ta'limotlarining o'ziga xos xususiyatlari. O'rta asrlar Musulmon Sharqi nafosat falsafasi.

Temuriylar davridagi estetik qarashlar. O'rta asr Yevropa estetikasi. Yevropa Uyg'onish davri estetikasi. Yevropada Yangi davri estetikasi: Yangi davrdagi Yevropa ma'rifatparvarlarining nafosat falsafasi, romantizm estetikasi, realism estetikasi. Rus mumtoz nafosat falsafasi. Hozirgi zamon G'arb nafosat falsafasi va undagi asosiy yo'nalishlar. Jadidchilik va undan keyingi davrlar o'zbek estetikasi. Jahon dinlari va estetika.

### **12-mavzu. Estetik anglash, estetik munosabat va estetik faoliyatning mohiyati va o'ziga xos xususiyati.**

Estetik anglash (estetik ong) tushunchasi va uning individual xarakteri. Insoniyat tarixida estetik anglash, munosabat va faoliyatning talqini. Estetik bilish va estetik qadriyatlar mutanosibligi. Estetik anglash va uning asosiy unsurlari; estetik ehtiyoj va estetik munosabat; estetik tuyg'u va estetik did; estetik baho va estetik ideal; estetik qarashlar va estetik nazariyalar. Shaxsning estetik ehtiyoji.

Estetik ehtiyoj inson hayotida ro'y beradigan estetik hodisalarning asosi sifatida. Estetik hissiyot. Estetik zavqning insonni tarbiyalash xususiyati. Estetik mushohadaning o'ziga xos xususiyati. Estetik baho subyektning obyektga munosabati, obyektning qadriyatini belgiladigan mezon sifatida. Estetik didning subyektiv baholash xususiyati. Estetik ideal va uning mavjudlik shartlari.

Estetik munosabatning o'ziga xos xususiyatlari. Modernizatsiya jarayonlarida estetik faoliyatning ko'rinishlari. Estetik faoliyat – mehnatning o'ziga xos turi. Estetik faoliyatning ijodiy xarakteri. Mehnat, o'yin va san'atning o'zaro munosabatlari. Estetik faoliyatning turlari: xalq ijodi va professional ijodiy faoliyat, badiiy faoliyat va uning estetik tabiati, ilmiy faoliyat, diniy faoliyat, ijodiy faoliyat, texnik faoliyat.

“Sog'lom turmush tarzi” tushunchasining estetik mazmuni. Mehnat estetikasi va uning shaxs kamolotidagi ahamiyati. Turmush estetikasining muhim jihatlari: kiyinish, moda, uy tutish, interyer, jihozlarni joylashtirish, obodonlashtirish, atrof muhitni go'zallashtirish.

Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari. Sport estetikasining zamonaviy ahamiyati. Sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda tarbiya shakllari: estetik tarbiya, axloq tarbiyasi, jismoniy tarbiyaning o'zaro aloqadorligi.

### **13-14-mavzular. Estetikaning asosiy kategoriyalari**

“Estetika” kategoriyalarining falsafiy mazmuni va mohiyati. Falsafa tarixida estetika kategoriyalari haqidagi tasavvurlarning xilma-xilligi. Go'zallik estetikaning asosiy kategoriyasi. Estetik tafakkur tarixida go'zallikka munosabat. Go'zallik haqidagi tasavurning o'zgaruvchanligi. Go'zallikning hayotda va san'atda namoyon bo'lishi. Go'zallik va manfaat. Go'zallik va uning muqobillari: hunuklik, badbaxshalik, beo'xshovlik, nomutanosiblik.

Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Fojeaviylik (tragediya) kategoriyasi. Kulgililik kategoriyasi. Kulgililikning namoyon bo'lish shakllari.

Estetika kategoriyalarining o'zaro aloqadorligi. Mo'jizaviylik, hayo (ibo-hayo) va qiziqarlilik estetika kategoriyalarini rivojlantiruvchi mezon sifatida.

### **15-mavzu. Tabiat estetikasi**

Insoniyat tafakkuri tarixida tabiatga estetik munosabatning zaruriyati haqidagi qarashlar. Tabiatning estetik xususiyatlari. Tabiat estetik faoliyat ob'ekti. Ekologik estetikaning qadriyat maqomi. Ekologiya estetikasining axloqiy muammolari. Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usuli:

tabiatni asl holda idrok etish, tabiatni badiiy obrazlarda ifodalash. Ekoestetikaning XXI asr ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni.

### **16-mavzu. Texnika estetikasi va dizayn**

Ilmiy texnik taraqqiyotning ijobiy jihatlari. Ilmiy texnik taraqqiyotda texnika estetikasining shakllanishi. Texnika estetikasining xususiyatlari. "Dizayn" tushunchasi va uning mazmuni. Dizaynning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati. Texnologiya sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. Texnika estetikasining ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni. Texnikaning inson estetik manfaatlari va faoliyati bilan bog'liqligi. Zamonaviy shaharsozlik estetikasi. Dizaynning estetik xususiyatlari. Tabiat va maishiy turmush dizayni. Xalq amaliy san'ati va dizayn.

### **17-mavzu. San'at va uning turlari**

San'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati. San'atning predmeti, maqsadi va vazifalari. Buyuk mutafakkirlar san'atning inson va jamiyat hayotidagi o'rni haqida. San'atning xususiyatlari: tarixiylik, ma'juziylik, demokratiklik, milliylik va umuminsoniylik. San'atning tamoyillari: xalqchilik, haqqoniylik, ijodiylik. San'atning turlari: badiiy adabiyot, xalq amaliy san'ati, me'morchilik, rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, kino, musiqa, estrada va sirk, qo'shiqchilik, raqs, askiya, notiqlik, badiiy suratlashlik, qiroat san'ati (badiiy o'qish); xattotlik. San'atning turlarga bo'linishi; turdosh san'atlar va janrlar. San'at turlarida mafkura tamoyillarining in'ikosi.

Badiiy asarni estetik idrok etishning ruhiy-hissiy va ma'naviy asoslari hamda uning ijodiylik tabiati. Estetik idrok etish madaniyatini ravnaq toptirish muammolari. San'atga estetik munosabatni shakllantirishda an'anaviylik va zamonaviylik birligi.

### **18-mavzu. Estetik madaniyat. Estetik tarbiya.**

Estetik madaniyat yuksalishining milliy va umuminsoniy jihatlari. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri. Estetik ravnaq va uning estetik ehtiyoj hamda estetik did bilan dialektik aloqadorligi.

Olamni estetik tushunishda jamiyat axborotlashuvining roli. Axborot estetikasining o'ziga xos xususiyatlari va uning ijtimoiy-siyosiy, badiiy-ijodiy, ma'naviy-axloqiy jarayonlar bilan bog'liqligi. Reklamaning estetik xususiyatlari.

Reklama faoliyatiga estetik qonuniyatlarning ta'siri. Reklamalardagi g'ayriestetik holatlar va ularning ko'rinishlari. Reklamaning estetik g'oyasida milliylik va umumbashariylik dialektikasi.

Voqelikka estetik munosabatning milliy va umumbashariy ahamiyati. Estetik qadriyatlar – barqarorlikni ta'minlovchi omil.

Estetik tarbiya tushunchasi. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari; elektron axborot vositalari, san'at, badiiy adabiyot. Shaxsni estetik tarbiyalashda fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro bog'liqligi. Unda badiiy xavaskorlik hamda san'at targ'ibotining ahamiyati. Ommaviy madaniyat va uning yoshlar estetik tarbiyasiga salbiy ta'siri.

Shaxsning estetik ehtiyoji va badiiy didini yuksaltirish – estetik tarbiyaning dolzarb muammosi. Zamonaviy shaxsni voyaga yetkazishda estetik tarbiyaning ahamiyati.

### **III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Etika va estetika" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Etika"ning fan sifatida predmeti, mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. Axloqiy fikr rivojining asosiy bosqichlari.
3. Axloq falsafasining shakllanishi. Axloqning tarkibiy tuzilishi.
4. Axloqning asosiy qoidalari, tamoyillari va ijtimoiy funksiyalari.
5. Axloqning asosiy kategoriyalari.
6. Axloqning asosiy kategoriyalari.
7. Oilaning axloqiy xususiyatlari.
8. Axloqiy madaniyat. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotiga tahdidlarning etikaviy xarakteri.
9. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning axloqiy jihatlari.
10. Estetika: obykti, predmeti va ijtimoiy funksiyalari.
11. Estetik fikr rivojining asosiy bosqichlari.
12. Estetik anglash, estetik munosabat va estetik faoliyatning mohiyati va o'ziga xos xususiyati.
13. Estetikaning asosiy kategoriyalari.

14. Estetikaning asosiy kategoriyalari.
15. Tabiat estetikasi.
16. Texnika estetikasi va dizayn.
17. San'at va uning turlari.
18. Estetik madaniyat. Estetik tarbiya.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar dars jarayonida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlarni keyslar va organayzerlar orqali bajarish natijasida yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarini chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

#### **IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

##### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:**

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

*Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:*

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- badiiy-ijodiy ishni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“**Etika va estetika**” fanidan mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Sharq va G'arb mutafakkirlarining etika va estetikaning mohiyatiga oid ta'riflarini tasniflab, taqdimot tayyorlash.
2. "Aristotel, Forobiy va Kant qarashlarida axloq kategoriyalarning tasnifi" mavzusida insho tayyorlash (krossvord tuzish).
3. Fitratning "Oila" asari asosida oila qurish tartiblari va farzand tarbiyasi g'oyalari haqida esse tayyorlash.
4. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini o'qib, undagi g'oyalarning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qilish va shu asosida taqdimot tayyorlash.
5. "Sharq va G'arb xalqlarining axloqiy madaniyatidagi umumiylik va farqlar" mavzusida videorolik tayyorlash.
6. "Etiket" mavzusida krossvord tayyorlash.
7. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ruboiylarining mohiyati hamda axloqiy madaniyat rivoji uchun tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish.
8. "Zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari" mavzusida esse tayyorlash.
9. "Oilaning mustahkamligi" mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.
10. "Yoshlarning axloqiy ongini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o'rni: afzalliklari va kamchiliklari" mavzusida videorolik tayyorlash.
11. Taqdimot tayyorlash: "Texnik kashfiyotlar davri va undagi axloqiy muhitning o'rni".
12. "Axloqiy tarbiyada an'anaviy vositalar va ularning axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlik jihatlari" mavzusida videorolik tayyorlash.
13. "Nitsshе falsafasida axloqli – komil inson tamoyili" mavzusida taqdimot tayyorlash.
14. "Muomala odobining insonlararo munosabatlarida kishilarning bir-biriga ruhiy va axloqiy ta'siri" mavzusida videorolik tayyorlash.
15. "Kasbiy odob tushunchasining kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatlarining dialektik in'ikosi" to'g'risida esse yozish.
16. "Yoshlar tarbiyasida muomala odobining zamonaviy muammolari" mavzusida videoroliklar tanlovini tashkil etish.
17. Anbar Otinning "Qarolar falsafasi" asarida insonparvarlik, adolat va ziyolilikning talqini borasida esse yozish.
18. Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulhamid Cho'lpon asarlarida ozodlik, jo'mardlik, fidoiylilikning axloqiy mazmuni borasida esse yozish.
19. "Boshqaruv tizimining axloqiy unsurlari" mavzusida videorolik tayyorlash.

20. "Insonni axloqiylikka yoki g'ayriaxloqiylikka undovchi omillar" mavzusida esse yozish.

21. "San'atda axloqiylik va g'ayriaxloqiylik aloqadorligi" mavzusida videorolik tayyorlash.

22. "Turli sivilizatsiyalarning omuxtalashuvi, urbanizatsiya, modaparastlik kabi zamonaviy hodisalarning o'zbek oilasidagi an'anaviy hayolilikka salbiy ta'siri" mavzusida esse yozish.

23. Hayotning ma'nosi bilan maqsadning farqi nimada Yaqin, O'rta Sharq va Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida axloqiy madaniyat masalalarining yoritilishi.

24. "Konfusiyning axloq falsafasi" mavzusida taqdimot tayyorlash.

25. "Avesto"dagi axloqiy fikrlar rivoji bo'yicha taqdimot tayyorlash.

26. Ekologik muammolar va ularning axloqiy madaniyatga bog'liq tomonlari.

27. Amaliy etika muammolari.

28. Jamiyat barqaror rivojlanishining axloqiy jihatlari.

29. "Ommaviy madaniyat va uning yoshlar estetik tarbiyasiga salbiy ta'siri" mavzusida videorolik tayyorlash.

30. "Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari" mavzusida taqdimot tayyorlash.

31. I.Kantning "Mulohaza qobiliyatining tanqidi" asarini o'qish va shu asar asosida talabalar o'zlarining chiroylilik, go'zallik haqidagi o'z fikrlarini hamda o'zlarining faoliyatlarini baholovchi esse tayyorlash.

32. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning san'at haqidagi qarashlarining qiyosiy tahlili (Forobiyning "Katta musiqa kitobi" va Ibn Sinoning "Musiqaning qisqartirilgan ko'rgazmasi" asarlari asosida).

33. "Axborotlashgan jamiyat va uning istiqbollari" mavzusida insho tayyorlash (A. Toynbi, E. Toffler asarlarini qiyosiy tahlil qilish asosida). Estetik jihatini aniqlash.

34. "Dunyoni estetik idrok etishda badiiy asarlarning ahamiyati" mavzusida esse tayyorlash.

35. "Dunyo xalqlarining estetik madaniyatidagi umumiylik va farqlar" mavzusida videorolik tayyorlash.

36. "Modernizm san'ati" mavzusida krossvord tayyorlash.

37. Umar Xayyom ruboiylarining mohiyati va estetika uchun tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilish.

38. "Texnika estetikasi, dizayn va ularning ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan aloqasi" mavzusi bo'yicha taqdimot tayyorlash.

39. Esse yozish: “Mening sogʻlom turmush tarzi estetikasi haqidagi tushuncham”.

40. “Yoshlarning estetik ongini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining oʻrni: afzalliklari va kamchiliklari” mavzusida videorolik tayyorlash.

41. Taqdimot tayyorlash: “Estetik madaniyat va jamiyatning ijtimoiy-maʼnaviy hayotining oʻzaro taʼsiri”.

42. “Reklama amaliy estetika obyekti sifatida” mavzusida videorolik tayyorlash.

43. “Sharq miniatyuralarining badiiy-estetik xususiyatlari” mavzusida taqdimot tayyorlash.

Mustaqil oʻzlashtiriladigan mavzular boʻyicha talabalar tomonidan taqdimot tayyorlash tavsiya etiladi.

3.

### **V. Fan oʻqitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

*“Etika va estetika” fanini oʻzlashtirish natijasida talaba:*

- etika va estetikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalarini; etika va estetikaning asosiy ontologik jihatlarini; dunyoning ilmiy, falsafiy, axloqiy va estetik manzarasi asoslarini; etika va estetikaning tarixiy bosqichlarini, estetik ong va faoliyat shakllarini;

- axloqiy va estetik qadriyatlarining inson va jamiyat hayotidagi oʻrni; etika va estetikaning fan sifatidagi kategorik apparati, falsafiy terminologiya, falsafiy bilimlarning tuzilishi va uning muammolari haqida **tasavvurga ega boʻlishi**;

- musulmon Sharqi buyuk mutafakkirlarining estetik qarashlari va ularning jahon estetik madaniyati rivojiga qoʻshgan hissasi; Yevropa estetik tafakkuri taraqqiyotining asosiy tarixiy bosqichlari bilan insoniyat sivilizatsiyasi merosi ekanligini;

- axloqiy va estetik faoliyat, badiiy ijod sohasida zamonamizning global muammolarining paydo boʻlishi va ularni hal etish istiqbollari; estetika – jamiyat barqarorligining muhim sharti boʻlgan moddiy va maʼnaviy hayotning uygʻun rivojlanishining timsoli ekanligini;

- asosiy axloqiy va estetik tushunchalar va kategoriyalarning maʼnosi; voqelikni oʻzlashtirishning estetik usulining oʻziga xosligi va ahamiyatini;

- estetika va sanʼatning asosiy muammolari mazmuni, estetika tarixida ularni hal etishning muqobil yoʻllari hamda ularni tushunishga zamonaviy yondashuvlarni;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- borliqning eng umumiy axloqiy, estetik muammolari, bilimlar, qadriyatlar, erkinlik va hayotning mazmuni, dunyoni axloqiy va estetik idrok etishning asosiy kategoriyalari va tamoyillarini <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> <li>- shaxsning estetik jihatlarini shakllantirish shartlari, ijodiy erkinlik, hayot, madaniyat va atrof-muhit go'zalligini saqlash uchun javobgarlik haqida;</li> <li>- axloqiy va estetik ong va axloqiy, estetik bilimning genezisi va evolyutsiyasining mohiyatini;</li> <li>- zamonaviy estetik nutqning o'ziga xosligi, mazmuni va asosiy yo'nalishlarini tavsiflash <b>ko'nikmasiga ega bo'lishi</b>;</li> <li>- fan, texnika, texnika yutuqlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy-axloqiy muammolarni;</li> <li>- milliy madaniy va axloqiy, estetik qadriyatlarni muhofaza qilish va boyitishda axloq, estetika fanlarining ahamiyati va rolini asoslash va mazmunli qadriyat tanlovini amalga oshirish, axloqiy, estetik qarash muammolari bo'yicha o'z hayotiy pozitsiyasini shakllantirish va aniqlash;</li> <li>- ko'rib chiqilayotgan muammolar bo'yicha o'z nuqtai nazarini mantiqiy shakllantirish, taqdim etish va bahsli ravishda himoya qilish, o'zining g'oyaviy va ijtimoiy pozitsiyasini asoslash, olingan bilimlarni kasbiy muammolarni hal qilishda, shuningdek amaliy hayotda qo'llash <b>malakalariga ega bo'lishi kerak.</b></li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>

5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, mustaqil ta'lim bo'yicha hamda joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish va/yoki og'zaki imtihonni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sher A. Estetika. Darslik. – T.: O'zbekiston. 2015.</li> <li>2. Muhammadjanova L., Sher A., Shadimetova G. Axloq falsafasi. Darslik. – T., 2023.</li> <li>3. Pulatova D., Ro'zmatova G., Jalolova O'. Axloqshunoslik. – T.:TDSHI, 2013.</li> <li>4. Ахмедова С.Д. Этика. Учебное пособие. – Т.:Принт. 2013.</li> <li>5. Апресян Р.Г. Этика. Учебник. - М.: МГУ, Кнорус, 2017 (elektron)</li> <li>6. Никитина И.П. Эстетика. Учебник. – М.: Юрайт, 2012. (elektron).</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>7. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023</li> <li>9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>10. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022.</li> <li>11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.</li> </ol>

12. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.Uz>
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida// [www.press-service.uz/uz/lists/view/688](http://www.press-service.uz/uz/lists/view/688)
14. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi (Besh tashabbus)//<http://www.uza.uz/oz/politics/prezident-veshlar-manaviyatini-yuksaltirish-ularning-b-sh-va-19-03-2019>
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.
16. Гегель Г. Эстетика. В 4-х томах (тт. 1-4). – М.: Искусство, 1968-1973.
17. Abdulla Sher, B. Husanov. Estetika. – T., “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010.
18. Arastu. Poetika. Axloqi Kabir. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
19. Muhammadjonova L. Amaliy etika. Uslubiy qo'llanma. – T.: Universitet. O'zMU, 2014.
20. Hakimov N.X., Amriddinova D. Jadidchilik ta'limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

#### **Scopusdan maqolalar**

1. Padmanabhan, S. Hegelian Legacy of Aesthetics: Theory of Art Versus Philosophy of Art. J. Indian Counc. Philos. Res. **40**. 305–321 (2023). <https://doi.org/10.1007/s40961-023-00312-1>
2. Shaw, S. (2023). Ethics. In: The Philosophy of Authentic Leadership. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-29650-5\\_5](https://doi.org/10.1007/978-3-031-29650-5_5)
3. Sfara. E. From technique to normativity: the influence of Kant on Georges Canguilhem's philosophy of life. HPLS **45**, 16 (2023). <https://doi.org/10.1007/s40656-023-00573-8>
4. Luara Ferracioli, Sam Shpall. Group Ownership, Group Interests, and the Ethics of Cultural Exchange// The Journal of Ethics. 2024. <https://link.springer.com/article/10.1007/s10892-024-09478-5>

#### **Axborot manbalar**

21. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
22. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
23. [www.library.zivonet.uz](http://www.library.zivonet.uz).
24. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz).

	<p>25. <a href="http://window.edu.ru/resource/429/69429/uchebnik-estetika">http://window.edu.ru/resource/429/69429/uchebnik-estetika</a></p>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" 06 dagi 10-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" 06 dagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p><b>Izzetova E.M.</b> – TDSHU "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası professori, f.f.d.;</p> <p><b>Ikramova I.R.</b> – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası dotsenti v.b., PhD.</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p><b>Ramatov J.S.</b>– TTYMU «Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori, professor;</p> <p><b>Saydaliyeva N.Z.</b> – TDSHU, "Sharq falsafasi va germenevtika" kafedrası dotsenti, f.f.n.</p>